




O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI
MAQOMI BERILGANLIGINING
35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN

“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
MUAMMO VA YECHIM**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

Buxoro, 21-oktabr, 2024-yil

“Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2024. – 136 b.

Mas’ul muharrir

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Rajabov D.Z.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Asadov T.H.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchilar**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Ahmadova U.Sh.**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Hamroyeva M.R.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqola va tezislarining mazmuni, ularda keltirilgan ma’lumotlar, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

*U qanday og'riqdir sho'rlik gullarni,
Olovga yo'llagan, yoqqan gulxanda...*

Millatning ayni fojiasi ham shu «o'zingdan chiqqan balo»larning ko'pligida edi-da. Ular mustamlaka tuzumning qo'g'irchog'iga aylanib, o'z qondoshi, jondoshi bo'lmish o'zbeklarga zulm qildi.

Tog'ay Murod romanlari adibning qolaversa, milliy adabiyotimizning shunchaki navbatdagi namunalari emas, XX asr aniqrog'I, salkam bir asr davom etgan istibdod nihoyasida maydonga kelgan "Otamdan qolgan dalalar" romani o'sha asr intihosida o'lkada yuz bergan milliy uyg'onish natijasida boshlangan millatning bir necha avlod asl o'g'lonlari- yorqin iste'dodlar qalbini olov bo'lib o'rtagan nido bo'lib yangradi. Asar orqali Tog'ay Murod haqiqiy ma'noda o'zbek xalqiga haykal qo'yadi...

Adabiyotlar

1. "Men qaytib kelaman" Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida. To'plovchi: Ma'suma Ahmedova. –T.: 2008.
2. T.Murod Otamdan qolgan dalalar. –T., "Zukko kitobxon": 2022. B: 351.
3. O'rozov A. T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarining til xususiyatlari haqida // Til va adabiyot ta'limi. 2009. 5-son, 45-47-b.
4. Hamroyeva M. R. LEBY LAYERS OF NAMES USED IN THE ARTISTIC WORKS OF TAHIR MALIK //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 367-373.
5. Avliyoqulova L. PSIXOLOGLAR NUTQIGA XOS TIBBIY BIRLIKLARNING AYRIM LISONIY XUSUSIYATLARI //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 286-290.
6. Асадов Т. Х. О'ЗБЕК ТИЛИДА СО'З ЯСАЛИШИ ТАДҚИҚИ ВА РИВОЖИ ХУСУСИДА //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2022. – Т. 5. – №. 2.

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Xojiyeva M.Y.,
BuxDU o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining ahamiyati, jamiyat hayotidagi mavqeyi va shu bilan birga ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga o'zbek tilini o'qitishda assesment metodini qo'llash texnologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *til, assesment metodi, interfaol, ta'lim, pedagogik texnologiya*

Til – millatning ulkan boyligi, bebaho mulki, har bir xalqning madaniyati va tarixidir. Yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bir tomondan ta'lim mazmunini takomillashtirish, ikkinchi tomondan ta'lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni jadal joriy etishni, shu asosda yuksak bilimli va madaniyatli barkamol avlodni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy istiqlof g'oyasiga sodiqlik, milliy – ma'naviy qadriyatlarga, xususan, o'zbek tiliga hurmat ruhini singdirish, sharqona odob – axloq, eng yuksak ma'naviy – axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishni taqozo etadi.

Til – ijtimoiy hodisa. Til jamiyatdagi aloqa almashuv quroli hisoblanadi. Til ayrim shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun ham til davlat ramzlari singari qonun bilan himoyalangani. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, bundan 31yil oldin tilimiz mustaqilligini qo'lga kiritishi barchamizning qalbimizga milliy g'urur hissini tuyishni iftixor etdi. Barchamizga ma'lumki, tilimiz "Davlat tili haqida"gi Qonun bilan mustahkam himoyalangan. Bu qonunning **1-moddasida**, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning **4-moddasida** yozilganidek, "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir". Yurtimizda 130dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi, "Davlat tili haqida"gi qonunning **2-,4-,6-,10-,14-**moddalarida belgilanganidek boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi. Shunday bo'lsada biz o'z ona tilimizni, davlat tili hisoblangan o'zbek tilini ikkinchi til sifatida

o'rganayotgan turli millat vakillari ruhiyatiga, qalbiga chuqur singdirishimiz va tilimizga bo'lgan hurmat-e'tiborini oshirishimiz lozim.

Umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini fan sifatida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o'rin tutadi. Boshqa millat vakillarining davlat tili hisoblangan o'zbek tilini puxta egallashlari, milliy, madaniy qadriyatlarini o'rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. O'zbekistonda yashab, o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lib, barcha sohalarida erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari fanning maqsadi sifatida belgilangan. Ammo aytib o'tishimiz joizki, fanga ajratilgan soat tilimiz imkoniyatlarini ochib berish, uning ildizlari-yu bugungi kun nufuzi, boy adabiy olamini tanitish uchun yetarli emas. Shunday bo'lsa-da, fanning maqsadidan kelib chiqib talabalarning mustaqil ravishda o'zbek tilida fikr yurita olishlari, fan bo'yicha shu bosqichda belgilangan nutqiy ko'nikmaga, leksik-grammatik bilimlarga ega bo'lishlari uchun mavzularni turli interfaol usullarda olib borishni rejalashtirishimiz lozim. *Interfaol* – bu o'zaro harakat qilmoq, kim bilandir suhbat, muloqotda bo'lmoqni anglatadi. O'qitishning interfaol usullari esa bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli hisoblanib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar va o'ylayotgan narsalarini tushunish, fikrlash imkoniyati yuqori bo'ladi. Bunday usullarda o'qituvchi faoliyatini dars maqsadiga erishishga yo'naltiradi. Bugun dars jarayonini mazmunli tashkil etish uchun bir qancha interfaol metodlar ishlab chiqilgan. "Tanishuv", "3x4", "Muammo", "Charxpalak", "AJIL", "Zinama-zina" texnologiyalari yordamida yoki pedagogning ijodiy kreativligidan kelib chiqib turli yangi usullarda darsni samarali tashkil qilishi mumkin. O'zbek tili darsida "O'zbek tilida sinonimlar" mavzusini assessment metodi yordamida ko'rib o'tamiz. Assessment – inglizcha so'z bo'lib, "baho", "baholash" ma'nosini anglatadi. Bu metodning maqsadi baholash, nazorat qilish, ta'lim oluvchining bilim darajasi, o'zlashtirish ko'rsatgichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltiriladi. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchining bilish faoliyati turli aspektlar (yo'nalish)larda, ya'ni test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash bo'yicha yo'lga qo'yiladi. Buning afzalligi shundaki, bir metod bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'quvchiga mavzu yuzasidan nazariy bilimlar beriladi, lug'atlar taqdim etiladi. Shundan so'ng "Assesment" metodi asosida mavzu mustahkamlanadi.

Test 1.Sinonim so'zlar qaysi sathning birligi? A. Fonetik B. Leksik D.Morfologik 2.Shivirlamoq, baqirmoq, gapirmoq, bo'kirmoq, to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq, irod etmoq bayon etmoq sinanimik qatordagi dominanta so'zni toping? A. Gapirmoq B. Shivirlamoq D. Bayon etmoq	Qiyosiy tahlil 1.Sinonim va omonim so'zlarni qiyosiy tahlil qiling. 2.Sinonim so'zlarni ko'p ma'noli so'zlar bilan qiyoslang. Simptom 1.Sinonim so'zlarning o'ziga xos xussiyatlarini sanang. 2.Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida mushohada yuriting. Amaliy ko'nikma 1.Sinonim so'zlarga misolla keltiring. 2.a) ataylab..., b)buyruq..., d) vaqt..., sinonim so'zlar qatorini davom ettiring.
---	---

Assesment metodidan darsning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Yangi mavzu yuzasidan nazariy bilimlar berishda ham test bilan boshlab mavzuni qiyosiy tahlil asosida tushuntirib, simptom orqali o'ziga xosliklarini sanab, amaliy ko'nikmada misollar keltirish orqali mavzuni chuqurroq yetkazib berish imkoni mavjud.

Xulosa shuki, innovatsion ta'lim texnologiyalari talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga o'qituvchidan dars jarayonida samarali usullarni qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishni talab etadi.

Adabiyotlar

1. Мусаев М.Э. ва б. Аниқ ва табиий фанлар таълими жараёнида қўлланиладиган интерфаол методлар.—Тошкент, 2016.
2. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. *TJE-Tematics journal of Education ISSN*, 2249-9822.
3. Nazarova S. A., Khojiev M. Y. Personal description in the word combination and expression in a speech //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 2. – C. 15-18.
4. Xojiyeva M. Y. Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari va assesment metodi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 7. – C. 302-307.
5. Zuxro J. GENDERNING NUTQIY IFODASI VA UNING PRAGMATIK TASNIFI //MASTERS. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 164-169.
6. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. –Buxoro: Durdona, 2021.—428 b.

THE RELEVENCE OF THE STUDY OF THE FIELD OF “TOURISM” IN MODERN LINGUISTICS.

Xoldorova Kh.,
Namangan State University
Foundation doctoral student

Annotation: The study of tourism in World linguistics is crucial for the development of the tourism sector, as it contributes to intercultural relations, terminology, marketing, and scientific research. The importance of linguistics and conceptual analysis in the field of tourism is linked to factors such as scientific research, education, linguistics and culture, translation, social culture and marketing, and globalization and cultural exchange. Research in this area helps improve linguistic and intercultural communication, terminology, and communication strategies, deepening intercultural understanding.

Key words: *Concept, tourism, linguistics, conceptual analysis, associative fields, terminology*

In these days, the study of the concept of tourism in World linguistics is of great importance not only in the field of linguistics, but also in the fields of intercultural relations, terminology, marketing, and scientific research. Research in this area contributes significantly to the development of the tourism sector. The relevance of the study of the concept of tourism in world and Uzbek linguistics, the importance of linguistics and conceptual analysis in the field of tourism are inextricably linked with several factors;

- *Scientific research and education*
- *Linguistics and culture*
- *Translation*
- *Social culture and marketing*
- *Globalization and cultural exchange*

The study of tourism concepts from a linguistic point of view helps to improve linguistic and intercultural communication, terminology and communication strategies, as well as deepen intercultural understanding. Research in this area plays an important role in creating innovation and developing new approaches in the field of international tourism. To date, the world and Uzbekistan are among the areas in which the direction of tourism has its place in the field of linguistics. It has been studied in detail by several linguistic researchers in World linguistics. Considered a well-known scientist and expert in Russian linguistics and tourism, Ekaterina Belan